

## **Ma'naviyatning muqaddas timsoli**

Joriy yilning 22-oktabr sanasida 4-sonli talabalar turar joyida 21-oktabr o`zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilganligining 30-yilligi munosabati bilan “Til-millat ma`naviyatining muqaddas timsoli” deb nomlangan bayram dasturi o`tkazildi. Bayramni ochib berish uchun so`z navbati TTJ direktori I. Buxorovga hamda yoshlar bilan ishlash bo`yicha dekan o`rinbosari X. To`ychiyevga berildi. Tadbirda 1-kurs talaba qizlari o`zlarining milliy raqslari bilan barchani qalbida chuqur iz qoldirdi. 2-kurs talaba yigitlari ijrosida sahna ko`rinishi va bayramga bag`ishlangan savol-javoblar hamda qiziqarli bahru baytlar o`tkazildi.

**4-TTJ tarbiyachi pedagogi A.Xaitova axboroti**

**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**